

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Yigitaliyeva Shohsanam Isog'aliyevna
Qo'qon DPI o'qituvchisi

Sodiqova Yulduzxon Muhammadjon qizi
Qo'qon DPI talabasi

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining demokratik-huquqiy, fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan dadil bormoqda. Iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, xalq ta'limi sohalarida islohotlar va yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatning taraqqiyoti, uning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rinni egallashi bugungi kunda ta'lim olayotgan yoshlarning ma'naviy salohiyati, keng dunyoqarashi va chuqur ilmiy, mustaqil fikrlashiga bog'liq.

Kalit so'zlar. innovatsiya, texnologiya, yangilik, ta'lim, pedagogik jarayon, metod, ijodkorlik

Annotation. Social development of the Republic of Uzbekistan is going boldly on the path of building a democratic-legal, civil society. Reforms and renewal processes in economic, cultural-educational, public education spheres are being carried out gradually and consistently. After all, the development of the society, its taking a worthy place among the developed countries depends on the spiritual potential, broad worldview and deep scientific, independent thinking of the young people who are studying today.

Keywords: innovation, technology, novelty, education, pedagogical process, method, creativity

Аннотация

Общественное развитие Республики Узбекистан смело идет по пути построения демократически-правового, гражданского общества. Постепенно и последовательно осуществляются реформы и процессы обновления в экономической, культурно-просветительской, народно-просветительской сферах. Ведь от духовного потенциала, широкого мировоззрения и глубокого научного, самостоятельного мышления учащейся молодежи зависит развитие общества, его занятие достойного места среди развитых стран.

Ключевые слова: инновация, технология, новизна, образование, педагогический

процесс, метод, творчество.

Oliy ta'limda ona tili kursini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida ishlash davrning asosiy talabi, hayotning zaruriyati bo'lib qolmoqda. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda "innovation" – "yangilik kiritish¹" degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida "innovatsiya" tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsiyalarning ko'rinishlari: yangi g'oyalar; tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan'anaviy yondashuvlar; odatiy bo'lmagan tashabbuslar; ilg'or ish uslublaridir².

Ta'lim innovatsiyalari ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar sanaladi Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur³.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi⁴.

Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyatida innovatsiya yangilikni qo'llashga tayyorgarligi,

¹ Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009. – B.154.

² Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – B.56.

³ Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005.

⁴ Sayidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – Toshkent: RTM, 1999. – B.61.

pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi, ijodkorligi bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Innovatsion yondashuv ijodiy faollik, faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik, yangicha fikrlash, yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lishni ifodalaydi. Pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi: ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish, pedagogik tadqiqot metodlarini egallash, mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati, tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish, o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish, hamkasblar bilan hamkorlik, fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik, ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish, yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi⁵. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi.

Shunday qilib, innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Interfaol ta'limning eng muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi⁶. Eng muhimi o'qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, interfaol metodlarni qo'llashda talabalarning yosh, psixologik

⁵ Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / Madiyarova S.A. va b. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.

⁶ Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar/Ma'ruzalar matni. Tuz.: Qosimov A.X., Holikova F.A. – Toshkent: TATU, 2004. – B.23.

xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009. – B.154.
- 2.Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – B.56.
- 3.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005.
- 4.Sayidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – Toshkent: RTM, 1999. – B.61.
- 5.Yigitaliyeva, S. (2023). KONSEPT VA UNING LINGVISTIKADAGI TALQINI. Scienceweb academic papers collection.
- 6.Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. Scienceweb academic papers collection.
- 7.Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. Scienceweb academic papers collection.
- 8.Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF “GOODNESS” IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. Scienceweb academic papers collection.
- 9.Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. Mug'allim.
- 10.Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari 01-704. Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar
11. Yigitaliyeva Shohsanam Isog'aliyevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'rgatishning lingvistik konseptual asoslari. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali.132-135b
- 12.Yigitaliyeva Shohsanam Isog'ali qizi. HISTORY OF THE FORMATION OF COGNITIVE LINGUISTICS 302-306 JournalINX.A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal
- 13.Makhramovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 149-154.
14. Makhramovna, B. D. (2023). SYMBOL OF LANGUAGE AND NATION. Conferencea, 135-140.

⁷ Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

15. Makhramovna, B. D. (2022). NIZOMIDDIN MAHMUDOV'S VIEWS ON MODERN LINGUISTICS. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 312-
16. Boshmanova, D. (2023). Nizomiddin Mahmudovning lingvistik qarashlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar.*
17. Boshmanova D. (2023). HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDA PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOVNING XIZMATLARI. *Jurnal.namdu.uz* 3 (3), 676-681
18. Muqaddas Muhammadrahimovna Saidakbarova, & Ramziya Abdurahimovna Jo'Rayeva (2023). SHOH BAHROM: TARIXIY SHAXS VA BADIY OBRAZ. *Academic research in educational sciences*, 4 (Conference Proceedings 1), 168-173.
19. Kobilova, Z. B., & Zokhidova, D. L. (2022). KOKAND LITERARY ENVIRONMENT. *Ann. For. Res.*, 65(1), 878-888.
20. Nadim, M. H. (2021). ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (6), 490-492.
21. Шомуротова, Ш. Х. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ. *ВКС 94 Z 40*, 183.
22. Shomurotova, S. X., Movlonova, S. A., & Abdulloyeva, M. R. (2022, June). Oliy ta'lim muassasalarining fizik-kolloid kimyo kursida "Kolloid sistemalarning olish usullari. Maydalash va kondensatlash" mavzularini o'qitish metodikasi. In *Conference Zone* (pp. 81-82).
23. Iskandarov, A. Y., Shomurotova, S. X., & Kamolova, N. (2020). Forming a methodology for developing students' creativity using creative methods in teaching chemistry to future chemistry teachers. *International journal of discourse on innovation, integration and education*, 1(2), 1-5.
24. Abdukodirovna, M. S. (2022). Methods and their importance in the field of chemistry training. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 382-385.
25. Movlonova, S. (2021). Oliy ta'lim muassasalarida azotli organik birikmalar mavzularini differensial yondashuv asosida o'qitish. *Jamiyat va innovatsiyalar.*
26. Agzamovna, K. F. (2021). Artistic speech is a factor of creating the hero's spirit (on the stories of Isajan Sultan). *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 37-39.
27. Tajikhon, T., & Hilola, A. (2022). THE FOREWORD OF" MAJMUAI SHOYRON". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 432-435.
28. Abdulhamidovna, T. T. (2022). Navoi's Fatherly Love and Loyalty. *Miasto Przyszłości*, 158-160.

29. Toshboltaeva, T. (2022). PERSIAN INTERPRETATION OF FINE ART. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 678-682.
30. Oripova, K. (2022). LEXICAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF ANTONYMS IN ARTISTIC DISCOURSE. Scienceweb academic papers collection.

